

## SAN'ATDA AYOL OBRAZI IN'IKOSINING QIYOSIY-ESTETIK TAHLILI (SHARQ VA G'ARB DIALEKTIKASI ASOSIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286234>

**Alimova Nargiza Rustam qizi**

*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

### **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada Sharq va G'arb san'atidagi farqli xususiyatlar, ayollar qiyofasining ikki mintaqa san'atida aks etishining o'ziga xos jihatlari, Sharq va G'arb san'at turlarida ayollar obrazlarining estetik mezonlari yoritib berilgan. Muallif ayollar obrazidagi arxetiplarning mintaqalar o'rtasida ko'chib o'tishiga urg'u bergan.*

### **Аннотация.**

*В этой статье раскрываются различные аспекты восточного и западного искусства, особенности отражения образа женщины в искусстве двух регионов, эстетические критерии образа женщины в восточных и западных видах искусства. Автор подчеркивает миграцию архетипов в образе женщины между регионами.*

### **Annotation.**

*This article reveals various aspects of Eastern and Western art, features of the reflection of the image of a woman in the art of two regions, aesthetic criteria for the image of a woman in Eastern and Western art forms. The author emphasizes the migration of archetypes in the image of a woman between regions.*

### **Kalit so'zlar**

*ayol obrazi, Sharq va G'arb san'ati, Sharq va G'arb ayoli, tasviriy san'at, raqs, madaniy farqlilik, arxetiplar, Malika arxetipi, femme fatale.*

### **Ключевые слова**

*женский образ, искусство Востока и Запада, женщина Востока и Запада, изобразительное искусство, танец, культурное разнообразие, архетипы, архетип принцессы, роковая женщина.*

### **Keywords**

*female image, art of the East and West, woman of the East and West, fine arts, dance, cultural diversity, archetypes, princess archetype, femme fatale.*

Sharq va G'arb tushunchalari bugungi kunda faqatgina geografik kenglikni anglatmaydi, ular bugungi kunda sotsiomadaniy, akseologik, diniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, estetik nuqtai nazardan bir-biridan farqlanuvchi ko'plab sivilizatsiyalar, etnomadaniy birliklarni o'zida aks ettiradi. Shu tufayli Sharq va

G'arb dialektikasi ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun xarakterli muammolardan hisoblanadi.

Sharq va G'arb dialektikasi haqida gapirganda, **quyidagi o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratish zarur:**

- **Sharq va G'arb madaniyatida o'zaro almashinish, taraqqiyotning ko'chishi hodisasi kuzatiladi.** Sharq ham, G'arb ham madaniy taraqqiyotda, sivilizatsion jarayonlarda tayyor "asos"dan foydalanishni ma'qul ko'rgan. Boshqacha qilib aytganda, taraqqiyot davrdan davr Sharqdan G'arbgga, G'arbdan esa Sharqqa doimiy ravishda ko'chib turgan, ikki mintaqa ham bir-birining madaniyat yutuqlaridan samarali foydalangan. Masalan, antik Yunoniston va Rimning taraqqiyoti Sharqda qaror topgan falsafiy-diniy ta'limotlarga tayangan. Yoki Sharq Renessansi bo'lgan IX-XII asrlarda antik mualliflarning ilmiy, madaniy merosi o'zlashtirildi, tarjima qilindi, boyitildi. G'arb keyingi asrlarda Sharqdan tegirmonlarni, hammomlarni qayta o'zlashtirdi, Ibn Sino, Ibn Rusht, Farg'oniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek asarlari lotin va boshqa Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilindi, o'rganildi<sup>103</sup>. Bu jarayon uzluksiz tarzda davom etib kelmoqda.

- **"Sharq" va "G'arb" turli tarixiy davrda turli geografik makonni anglatgan.** Dastlab Ko'hna Dunyo (Osiyo, Yevropa va Afrika) uchun quyosh chiqadigan tomon Sharq, quyosh botadigan tomon esa G'arb deb nomlangan edi. Keyinchalik O'rta yer dengizi atrofidagi xalqlar, xususan, qadimgi yunonlar tomonidan o'zlaridan Sharqda joylashgan barcha davlatlar Sharq, antik madaniyat tarqalgan Attika, Pireney yarim orollari, Afrika shimolidagi davlatlar (masalan, Karfagen) G'arb hisoblangan. Xristianlik dini tarqalganidan so'ng xristian bo'lmagan barcha elatlar, davlatlar Sharq atamasi ostida birlashtirilgan, xristian dunyosi esa G'arb hisoblangan. Islom dini paydo bo'lib, tarqalganidan so'ng esa, Arab xalifaligining hududlari bo'lgan Shimoliy Afrika va Pireney yarim oroli ham Sharq mintaqasiga aylanib qoldi. Keyinchalik bu ikki atama kapitalistik dunyo va nokapitalistik mintaqalarni, o'tgan asrda esa kapitalizm va sotsializm tuzumlarini bir-biridan ajratish uchun ishlatilgan.

- **Sharq va G'arb ijtimoiy ongida axloqiy va estetik kategoriyalar turli mazmuni anglatadi.** Bugungi G'arb uchun inson huquqlari eng asosiy axloqiy qadriyat bo'lsa, Sharqda jamoa manfaati birlamchi o'ringa ko'tariladi. G'arb individuallikni targ'ib etsa, Sharq ijtimoiylashuv sari borishni ma'qul ko'radi. Qadriyatlar, tamoyillar, kategoriyalar orasidagi farq mintaqalarda hukmron bo'lgan axloqiy, diniy, siyosiy dunyoqarash shakllariga bog'liq. Ba'zida esa estetik

<sup>103</sup> Маматов Н., Хожибоев А., Жўраев Ш. Фалсафа тарихи (Шарқ ва Ғарб фалсафаси, ўқув қўлланма). Тошкент, ТМИ – 2006 й. 4-7 бетлар.

tamoyillar, mezoniy tushunchalar ikki mintaqada ikki xil, ba'zida bir-biriga zid ma'noda tushunilishi mumkin. Masalan, G'arb uchun inson tanasi – go'zallikning yetuk namunasi bo'lgan, ko'plab "shedevr" ga aylangan antik davr san'at asarlari qahramonlari yarim yalang'och yoki kiyimsiz holatda tasvirlangan. Renessans davridan boshlab bu tendensiya yana kuchayganligini kuzatishimiz mumkin. Sharqda esa buning mutlaqo aksi. Masalan islom dini ta'sirida shakllangan san'atda inson tanasining ochiq holatdagi tasvirini deyarli uchratmaysiz. Libossiz tana tasviri – G'arb uchun go'zallikning ko'rinishi, Sharq uchun xunuklikning namunasi hisoblangan. Yoki oilaviy munosabatlarda voyaga yetgan o'g'il va qizning oilani tark etishi yoki ayol o'z erki uchun eridan ajrimni talab qilishi shaxs individualligining g'alabasi, axloqiy hodisa sifatida talqin etilsa, Sharqda bu kabi holatlarga oila institutining, oilaviy qadriyatlarning buzilishi, o'ta ketgan axloqsizlik sifatida qaralgan.

Atamalarni ishlatishga nisbatan ko'plab qarama-qarshiliklar mavjudligiga qaramasdan, ushbu ikki geografik makonni shartli ravishda bir-biridan ajratish mumkin. Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Old Osiyo mintaqalarida yashagan turmush tarzi o'troq yoki ko'chmanchi bo'lgan etnik birliklarni Sharqqa, O'rta yer dengizining shimoliy qismi, Antik dunyo va, keyinchalik Yevropa madaniyatiga daxldor bo'lgan mintaqalarni G'arb sifatida farqlashimiz mumkin.

Endi esa G'arb san'ati va Sharq san'atining farqli jihatlariga to'xtalib o'tsak. G'arb san'ati Sharq san'atidan ishlatiladigan **uslublari, vositalari va ashyolari, madaniy muhiti, estetik ideallari, diniy va falsafiy qarashlariga** ko'ra ajratib olamiz. Masalan, tasviriy san'at va haykaltaroshlikda ishlatiladigan ashyolar G'arb va Sharq uchun farqli. G'arb rassomchiligida qalin kanopdan to'qilgan matodan foydalanilsa, an'anaviy koreys, yapon, xitoy san'atida guruchdan tayyorlanuvchi yupqaroq qog'ozga rasm chizishni ma'qul ko'rishadi. G'arb haykaltaroshligi material sifatida asosan metall va toshdan foylansa, Sharqda bulardan tashqari to'qimachilik mahsulotlari, yog'och ham ishlatiladi. Estetik ideallar nuqtai nazaridan G'arb inson tanasining go'zalligi, jismonan mukammalligini tasvirlashni asosiy o'ringa chiqardi, Sharqda, masalan islom san'atida islomiy naqshlar, geometrik shakllarga alohida e'tibor qaratildi. Yoki G'arb san'atida turli rangdagi bo'yoqlardan foydalanilgan murakkab tasvirlar chizish qadrlangan, Xitoy va Yaponiyada esa oddiy siyohdan foydalanuvchi kalligrafiya yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan. Madaniy kultrlarning ham G'arb va Sharq san'atiga ta'siri katta bo'lgan. Sharqda san'at asosiy e'tiborni oila kabi ijtimoiy institutlarga qaratdi, san'atga ijtimoiy mahsulot sifatida yondashildi. Tarixda o'z asarlariga hatto

imzolarini qo'ymagan Yaponiya va G'arbiy Afrikalik ijodkorlarning asarlarini uchratish mumkin. G'arbda esa individuallikka, rassomning dahosiga e'tibor qaratilgan, liberal gumanizm markaziy o'ringa qo'yilgan. Bundan tashqari, G'arb va Sharq san'ati taraqqiyotiga din faktori ham katta ta'sir ko'rsatgan. G'arbda dastlab antik yunon politeistik qarashlari, keyinchalik xristian dini g'oyalari san'atni ilhomlantirgan, diniy mavzularni rag'batlantirgan. Sharqda esa buddizm ta'sirida haykaltaroshlik, islom dini tufayli badiiy adabiyot, arxitektura, naqqoshlik, xattotlik taraqqiy etdi.

**Ayol siyomosining yaratilishida** ham Sharq va G'arb san'ati ikki xil yondashuvdan foydalangan. Qadimiy Sharqdagi go'zallik haqidagi estetik qarashlar dastlab foydalilik (nima foydali bo'lsa - o'sha go'zal), keyinroq axloqiylik (nima ezgu bo'lsa - o'sha go'zal) tamoyillari asosida shakllandi. Yunon mumtoz estetikasi namoyandalari, xususan Aristotel esa, go'zallikning foydalilikdan va ezgulikdan alohida holda mavjud bo'lishi mumkinligini aytib o'tdi. Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, go'zallik tushunchasi antik davrdan buyon eng murakkab tushunchalardan biri bo'lib, ushbu tushunchani o'rganishda unga nisbatan munosabatimizni madaniy yo'nalishda tadqiq etish to'g'riroq bo'ladi. Masalan, G'arb va Sharq rassomlari vizual dunyoni geometrik va metaforik jihatdan ifodalash uchun turli nuqtai nazarlardan foydalanishga moyil<sup>104</sup>, va nazarimizda bu mutlaqo tabiiy holat. Turli madaniy va ijtimoiy guruh vakili bo'lgan tomoshabinlar aynan bir xil bo'lgan vizual tasvirdan bir-biridan farq qiluvchi estetik taassurot olishlari mumkin<sup>105</sup>. Masalan, o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Sharq mintaqasida yashovchi, ushbu mintaqaning madaniy muhitiga tegishli bo'lgan insonlar aynan o'zlari yashayotgan hududga tegishli bo'lgan san'at asarlarini G'arb uslubidagisidan ko'ra go'zalroq deb hisoblashgan. G'arblik san'at ixlosmandlarining fikri esa aksincha. Bu esa madaniy jihatdan tegishlilik go'zallik kabi estetik ideallarning shakllanishida muhim rol o'ynashini isbotlaydi. Madaniy tafovut aynan bir xil estetik obyektlar ba'zi tomoshabinlar uchun go'zallik obyekti, boshqalari uchun esa bunday bo'lmasligini izohlashga yordam berishi mumkin<sup>106</sup>.

Go'zallik, xususan ayollar go'zalligi haqidagi estetik qarashlardagi farqlar san'at asarlarida go'zallik, nafislik, muhabbat ramzi bo'lgan ayollarni tasvirlashda

<sup>104</sup> Bao Y, Yang T, Lin X, et al. Aesthetic Preferences for Eastern and Western Traditional Visual Art: Identity Matters. *Front Psychol.* 2016;7:1596. Published 2016 Oct 20. doi:10.3389/fpsyg.2016.01596

<sup>105</sup> Palmer S. E., Schloss K. B., Sammartino J. Visual aesthetics and human preference. *Annu. Rev. Psychol.* 2013; 64:77-107. doi:10.1146/annurev-psych-120710-100504

<sup>106</sup> Jacobsen T. Beauty and the brain: culture, history and individual differences in aesthetic appreciation. *J Anat.* 2010;216(2):184-191. doi:10.1111/j.1469-7580.2009.01164.x

ham namoyon bo'lgan. Buni haykaltaroshlik, tasviriy san'at, badiiy adabiyot, raqs, teatr kabi turli san'at turlari misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Ayollarning mukammal obrazi haqidagi qarashlar orasidagi farq, ayniqsa tasviriy san'at va haykaltaroshlikda yorqinroq namoyon bo'ladi. Odatda tipik Sharq san'ati sifatida e'tirof etiluvchi Uzoq Sharq mamlakatlari – Xitoy va Yaponiya tasviriy san'atida ayollarga munosabat G'arbdagiga nisbatan ancha farq qilgan. Masalan, Xitoy portretlari nafaqat insonning tashqi ko'rinishiga tegishli bo'lgan estetik xususiyatlarini tasvirlashi bilan, balki insonning ichki dunyosini, aql-zakovatini ham tasvirlash qobiliyati bilan ham hayratga soladi. Yevropa san'ati, xususan, Uyg'onish davri rassomlari tomonidan chizilgan suratlarda esa insonning jismoniy barkamolligiga asosiy e'tibor qaratilar edi. Estetik ideallardagi farq go'zallikka munosabatda sezilarli ko'rinishda bilinadi. Qadimgi Xitoydagi ideal go'zallari kichik oyoqlarga ega bo'lib, kichik qadam tashlashi, majnuntol kabi egilib yurishi kerak yedi. Nozik, ingichka uzun barmoqlar, yumshoq kaftlar, mayin teri, rangpar ko'rinishdagi katta peshona, kichkina quloqlar, qora soch va ingichka qora qoshlar, yorqin lablari hamda kichik yumaloq og'iz – bu klassik xitoy ayoli go'zalligining tashqi ko'rinishiga tegishli eng muhim estetik talablar hisoblangan.

Yapon an'anaviy tasviriy san'atida ayollarni tasvirlashda asosan ularning ayollikini ko'rsatib turuvchi jismoniy belgilari yashirilgan. Ideal go'zal yapon ayoli – kimono kiygan yosh o'spirin qiz ko'rinishida tasvirlangan. Kimono bir vaqtning o'zida ayol tanasining kamchiliklarini ham, afzalliklarini ham yashirib, uni kiygan ayolning faqatgina yelka va bel qismi sezilib turgan. Yaponlar uchun tashqi go'zallik ichki go'zallikning bir qismi hisoblangan. Shuning uchun Yaponiyada ayollar nafaqat chiroyli bo'lishga intilgan, balki musiqa chalish, she'r aytish, chiroyli suhbat qurishni ham o'rganishgan. Yaponiya tasviriy san'ati uchun ayol obrazidagi estetik idealning etalonlari ingichka uzun ko'zlar, katta lablar va kichik og'iz, doira shakliga yaqin bo'lgan yuz hamda bo'liq yonoqlar hisoblangan. Vaqt o'tgani sari ushbu etalonlar ham o'zgara bordi, bosh shaklini noksifat qilib tasvirlash, burun va og'izning shaklini kichraytirish, kiziq chiziqqa o'xshagan ko'zlar hamda tekis, uzun sochlar go'zallikning belgisiga aylandi. O'rta Osiyo tasviriy san'ati maktabida, xususan, miniatyura maktabida ham ayol obrazining tashqi qiyofasi estetik mezonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, Kamoliddin Behzodning Amir Hisrav Dehlaviyning "Layli va Majnun" (1492), Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" (1494) asarlari uchun ishlangan miniatyuralari, shuningdek, zamonaviy o'zbek tasviriy san'atida rassom Chori Axmarovning "Raqqosa", "Nodira", "Shoira", "Qizlarxon", "Ona va bola" asarlarida ayol

go'zalligi, latofati, nafasati sharqona ijtimoiy estetik talablar doirasida yorqin ifodalangan<sup>107</sup>.

Yevropada esa mutlaqo farq qiluvchi go'zallik talablarini ko'rishimiz mumkin. Antik davrdagi jismoniy barkamollikni o'zida jamlagan mifologik obrazlar, o'rta asrlardagi diniy kontekstdagi Madonna timsoli, Uyg'onish davridan boshlab antik kiyimsiz tasvirlanuvchi Venera-yu Danayalar, jo'shqin hayotni o'zida aks ettiruvchi zamondosh ayollar tasviri go'zallikning ideali sifatida talqin etilardi. Sharq va G'arb tasviriy san'ati uchun xarakterli jihatlardan biri – G'arb rassomchiligida, xususan, ayollar portretlari, turli Madonnalari hamda antik Veneralarda rassom asosiy urg'uni asosiy obrazga qaratgan, umumiy tasvirdan obraz yaqqol ajralib turgan. Sharqda, masalan, Xitoyda esa obraz umumiy tasvirning bir bo'lagi sifatida yondashilgan<sup>108</sup>.

Ayollarning G'arb va Sharq uslubida **tasviriy san'atda** qanday holatda aks ettirilishini Misrning Heluan universiteti (Helwan University) Badiiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi, rassom Marva Moxey El Din (Marwa Mohey El Din) tomonidan chizilgan "Sharq ayoli va G'arb ayoli" suratida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Rasm modern uslubida oq va qora rangli bo'yoqlar yordamida chizilgan. Ikki qismga bo'lingan suratning chap tomonida G'arb ayoli, o'ng tomonida esa Sharq ayoli tasvirlangan. Ushbu joylashuv G'arb va Sharqning xaritada geografik joylashuvini takrorlagan. G'arb ayoli tasvirida ayol tanasi deyarli libossiz holatda, boshida shlyapa kiygan holatda tasvirlangan. Sharq ayoli an'anaviy sharqona libosda, bo'ynida ramziy belgi aks etgan taqinchoq, sochlari ikki tomonga taralgan holatda tasvirlangan. Ayollar tasviri ortidagi tasvir mavzuni yanada to'ldiradi. G'arb ayoli ortida baland binolar, lampalar, insonlar va gullar ilyustratsiyasi tasvirlangan. Sharq ayoli ortida esa sharqona naqshlar, ayolning boshida ramziy obraz bo'lgan parvozdagi burgutni uchratishimiz mumkin. Ushbu rasmdagi umuman Sharq va G'arb tasviriy san'atida ayollar obrazini yaratishdagi estetik mezonlarni ham aks ettiradi. Masalan, G'arbda ayollar nisbatan ochiq obraz, uning jismoniy mukammalligidan rohatlanish san'atning eng ustuvor maqsadlaridan hisoblanadi. Sharq uchun esa ayol – biroz sirli, biroz uzoqroqdagi, lekin ohanrabodek o'ziga tortuvchi hilqat. Uning sirliligiga san'at asarida ramzlar (burgut, taqinchoq) bilan yanada mustahkamlanadi, u liboslar bilan o'rangan. Ikki holat ham ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini ham aks ettiradi. G'arbda ayol erkin individ, jamiyatning teng huquqli a'zosi, u taraqqiyot yutuqlaridan bahramand

<sup>107</sup> Хусанов Б., Қодирова Д. Санъат ва эстетик тарбия. Т.: "Университет". 2018 й. 59 б.

<sup>108</sup> Алимова Н. Р. Қ. ЗАМОНАВИЙ СИНКРЕТИК САНЪАТ ТУРЛАРИДА АЁЛ СИЙМОСИНИНГ ИНЪИКОСИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 541-550.

bo'lish imkoniyatiga ega. Sharqda esa ayolning taqdiri ijtimoiy madaniy muhitga bog'liq. U oilaning ramzi, or-nomusining belgisi. Umuman olib qaraganda esa ikkisi ham ayol, muhabbat obyekti, go'zallik, nafosat, latofat egasi. Bu esa ularning asosiy umumiy jihati hisoblanadi.

**Raqs san'atida** ham Sharq va G'arb uslubining farqini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Azaldan ayollar raqs san'atida dominant bo'lib kelganligi tufayli bu san'at turida ayollarning obrazi orasidagi farq yorqinroq ko'rinadi. Raqs milliy mental xususiyatlar, milliy liboslar, milliy musiqa bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, qadimiy yunon madaniy muhiti uchun raqsga munosabat bilan, xitoy, yapon yoki hindlar san'atidagi raqsni tenglashtirib bo'lmagan. An'anaviy milliy raqslarda Sharq G'arbdan ancha ilgari ketgan edi. Bunga o'rta asrlarda G'arbda cherkov raqsga, ayniqsa ayollar raqsiga qarshilik qilganligi ham ta'sir ko'rsatgan.

Sharqda esa raqs madaniyatning bir qismi sifatida taraqqiy etgan. Yaponiyada XII-XIV asrlarda mashhur bo'lgan shirabyoshilar (ayol raqqosalar) raqslarini erkaklar libosida, xattoki samuraylar qilichini taqib olgan holda amalga oshirgan<sup>109</sup>. Ular yuzlari va bo'yinlariga qalin oq upa surib olishgan, qoshlarina upa ustidan chizishgan, ushbu an'ana zamonaviy yapon geysalarida ham uchraydi. Yoki raqs san'ati yuksak darajada taraqqiy etgan Hindistonda ayollar asosiy rolni o'ynagan. To'qqiz asosiy turga bo'lingan hind an'anaviy raqslarining aksariyatini ayollar ijro etishgan (masalan, Mohiniyattam), ba'zilarida erkaklar bilan birgalikda raqs tushishgan (Katkak). Umuman olganda hind raqslari – ideal ayol obrazining ajralmas qismi. Hamisha milliy libosda, milliy musiqa sadolari ostida ijro etiluvchi bu raqslarda raqqosalar eng muhim rolni o'ynagan. Hind raqslarida ayollar nafaqat raqs elementlarini bajargan, balki tomoshabinlarga anjika deb ataluvchi imo-isholar va tana harakatlari yordamida o'z fikrlarini yetkazgan ham<sup>110</sup>.

Sharq va G'arbda ayol obrazini yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan yana bir fenomen ikki madaniy mintaqaga xos bo'lgan uslublar, Karl Yungning ta'biri bilan aytganda, arxetip sifatida shakllangan obrazlarning bir-biriga o'tishida namoyon bo'ladi. **Arxetip** – ijtimoiy ongning turli shakllarida tez-tez takrorlanadigan obrazlar, syujetlar, motivlar, K.Yung ta'rifi bilan aytganda, "ijtimoiy onglanmaganlikning bir ko'rinishi"<sup>111</sup>. Ayol obrazidagi arxetiplarni ikki mintaqadagi turli xalqlarga tegishli bo'lgan og'zaki ijod mahsullarida, diniy-

<sup>109</sup> Strippoli, Roberta. *Dancer, Nun, Ghost, Goddess: The Legend of Giō and Hotoke in Japanese Literature, Theater, Visual Arts, and Cultural Heritage*. Brill. pp. 26–30. ISBN 9789004356320.

<sup>110</sup> Tanvi Bajaj; Swasti Shrimali Vohra (2015). *Performing Arts and Therapeutic Implications*. Routledge. pp. 82–84. ISBN 978-1-317-32572-7.

<sup>111</sup> Юнг К.Г. Архетип и символ. — М.: Ренессанс, 1991. — 298 с.

mifologik asotirlar, xalq ertaklari, afsonalar, xalq folklorida kuzatishimiz mumkin. Ushbu arxetiplarning ba'zilar bilan tanishib o'tamiz:

**Malika arxetipi.** Davlat hukmdorining yolg'iz qizi, yuksak hayotiy idellar sohibasi, musiqa va san'at shaydosi, kattalarning gapiga quloq soladi va (asosiysi) juda go'zal. Syujet oxirida sof muhabbat va oq ot mingan shahzoda bilan uzoq va baxtli hayot kechiradi. Bu kabi arxetipni ham Yevropa, ham Osiyodagi ko'rlab ertaklarda uchratish mumkin.

**Kulxonim arxetipi.** Kulxonim yoki Zolushka – o'gay onaning qo'lida qolgan aqlli, chiroyli va mehribon qiz. Doimiy ravishda o'gay onasi va opa-singillari tomonidan tazyiqlanishiga qaramasdan qanaqadir g'ayritabiiy narsa (sehrgarlar yordami kabi) tufayli o'z baxtini topadi. Yevropada – Zolushka, Rossiyada – Nastinka, O'zbekistonda esa – Zumrad obrazi bilan mashhur.

**Jangchi ayol arxetipi.** Yengilmas, mustaqil, jismoniy jihatdan barkamol, go'zal, matonatli. Bu arxetip G'arb va Sharq san'ati uchun ham xarakterli. Masalan, G'arb uchun qadimdan saqlanib qolgan mifologik obrazlar – Afina, amazonkalar, Sharqda esa turli dostonlar qaxramonlari, rivoyatlar vakillari – To'maris, Zarina, Barchinoy kabilar shu arxetipga mos.

Bu kabi arxetiplarni ko'plab misol keltirish mumkin. Bundan anglashimiz mumkinki, G'arb va Sharq san'atida ayollar obrazlarning umumiy xususiyatlari, ma'naviy, estetik, axloqiy jihatlari arxetiplar orqali shakllantirilgan, bir hududdan ikkinchi hududga nusxalangan va, albatta mintaqaning madaniy muhitiga moslashtirilgan. Arxetiplarning ko'chishi, ilgari mavjud bo'lgan arxetiplarga qaytadan murojaat qilish hodisasi bugungi zamonaviy G'arb va Sharq san'atida ham uchraydi. Masalan, shu arxetiplardan biri – mash'um, baxtsizlik olib keluvchi sohibjamol ayol (fran. *la femme fatale*) arxetipi hisoblanadi. Ushbu arxetip go'zal, lekin baxtsizlik keltiruvchi, ba'zan o'z oshiqclariga tuzoq qo'yib, ularni yo'q qiluvchi ayol, zamonaviy ko'rinishda esa vampir ayol qiyofasini jamlagan. Bu arxetip Sharq va G'arb san'atida tarixdan mashhur. Yahudiyalarda Lilit, hindlarda – Mohini, yunonlarda – Sirseya, Medeya, Klitemnestra, rimliklarda – Lesbiya, yaponlarda – Tamamo-no Mae, xitoyliklarda – Daji obrazlari kamida ikki mingyillik tarixga ega. XX asrdan boshlab bu arxetip G'arb adabiyoti va kino san'atida qaytadan jonlandi, ko'plab asarlar (masalan, R.Kiplingning "Vampir", "Axmoq edi..." she'rlari, D.Hammetning dedektiv asarlari, K.Roberts ijodi) yozildi, ular asosida filmlar olindi, *femme fatale* arxetipidagi ayollar obrazi yaratildi. Oradan biroz vaqt o'tganidan so'ng arxetip Osiyoda, xususan, Yaponiya san'atida uchray boshladi. Yaponiyadagi neoromantizm yo'nalishida ijod qiluvchi adiblar mash'um ayol arxetipiga murojaat qilishdi. Zamonaviy yapon adabiyotidagi ushbu arxetip



asosida paydo bo'lgan obrazlarni ikki kategoriyaga ajratish mumkin: 1) G'arbning halokatli, baxtsizlik keltiruvchi *femme fatale* lari; 2) Tashqi ko'rinishi ayniqsa Taisyoda davridagi (1912-1926) "yangi ayol" (*atarasii onna*) va "zamonaviy qiz" (*modan garu* yoki *moga*) kabi arxetiplarning shakllanishidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy yapon yoki "g'arblashgan" yapon *femme fatale* obrazi<sup>112</sup>. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ayollarning san'atdagi badiiy arxetiplari G'arb va Sharq san'ati uchun birdek xarakterli hamda ushbu arxetiplar qadim zamonlardan bugungi davrga qadar ikki mintaqada san'atida o'zaro almashinib turgan.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy Sharq san'ati qadriyatlari ayolni tasvirlashda milliy mental xususiyatlar bilan bir qatorda G'arbning zamonaviy badiiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirmoqda. Zamonaviy san'at turlari Sharq va G'arb san'atidagi estetik xususiyatlarni umumiyashtirmoqda, san'atda ayolning global timsoli yaratilishiga harakat qilinmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маматов Н., Ҳожибоев А., Жўраев Ш. Фалсафа тарихи (Шарқ ва Ғарб фалсафаси, ўқув кўлланма). Тошкент, ТМИ – 2006 й. 4-7 бетлар.
2. Bao Y, Yang T, Lin X, et al. Aesthetic Preferences for Eastern and Western Traditional Visual Art: Identity Matters. *Front Psychol.* 2016;7:1596.
3. Palmer S. E., Schloss K. B., Sammartino J. Visual aesthetics and human preference. *Annu. Rev. Psychol.* 2013; 64 77-107.
4. Jacobsen T. Beauty and the brain: culture, history and individual differences in aesthetic appreciation. *J Anat.* 2010;216(2):184-191.
5. Хусанов Б., Қодирова Д. Санъат ва эстетик тарбия. Т.: "Университет". 2018 й. 59 б.
6. Алимова Н.Р. Қ. ЗАМОНАВИЙ СИНКРЕТИК САНЪАТ ТУРЛАРИДА АЁЛ СИЙМОСИННИНГ ИНЪИКОСИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 541-550.
7. Strippoli, Roberta. *Dancer, Nun, Ghost, Goddess: The Legend of Giō and Hotoke in Japanese Literature, Theater, Visual Arts, and Cultural Heritage.* Brill. pp. 26-30.
8. Tanvi Bajaj; Swasti Shrimali Vohra (2015). *Performing Arts and Therapeutic Implications.* Routledge. pp. 82-84.

<sup>112</sup> Санина К.Г. Образы роковых женщин в творчестве японских неоромантиков //История и культура традиционной Японии. – 2010. – Т. 3. – С. 343-368.

9. Юнг К. Г. Архетип и символ. – М.: Ренессанс, 1991. – 298 с.

10. Санина К. Г. Образы роковых женщин в творчестве японских неоромантиков //История и культура традиционной Японии. – 2010. – Т. 3. – С. 343-368.